

**SURXONDARYO VILOYATI POLIZ EKINLARIDA UCHROVCHI
PARAZIT NEMATODALARI TARQALISHI**

Mamanazarova Maqsuda O'razaliyevna

Termiz agrotexnologiyalari va innovatsion rivojlanish instituti assistenti

Annotatsiya

Tadqiqot. Surxondaryo viloyatining Termiz, Angor, Jarqo'rg'on Oltinsoy, Denov tumanlarida olib borilgan bo'lib tadqiqot obyekti poliz ekinlaridan tarvuz va qovun ildizi va ildizi atrofida uchrovchi parazit nematodalar tarqalishi haqida ma'lumot berish.

Kalit so'zlar: tarvuz, qovun, nematode, meloidogenoz kasalligi

Dunyoda aholi sonining ortishi sifatli oziq-ozqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ham ortishiga olib keladi Bu esa o'z-o'zidan qishloq xo'jaligi sohasini yanada rivojlantirish muhim ekanligi isbotlaydi. . Aholini oziq ovqatga bo'lgan talabini qondirishda turli xildagi sabzavot, poliz ekinlar va mevali o'simliklardan foydalaniladi.

Polizchilik – qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i. Bu ekinlar dunyoning ko'plab mamlakatlarda jumladan– Xitoy, Turkiya, Hindiston, AQSh, Eron, Misr, Ispaniya, Ukraina, Bolgariya va O'rta Osiyo davlatlarida ko'plab yetishtiriladi [6] Poliz ekinlari respublikamizning barcha viloyat, tumanlari fermer xo'jaliklarida va aholining shaxsiy tomorqalarida yetishtiriladi. Respublikamizda har yili o'rtacha 60 ming gektardan ortiq maydonga poliz ekilib shundan 60-65% ini tarvuz, 35-38% ini qovun egallaydi. [4]. Mevalari shirin tamli bo'lishi bilan bir qatorda tarkibida inson organizmi uchun foydali bo'lgan moddalar uchraydi. Ammo bu ekinlarda turli xil zararkunandalar ko'p miqdorda uchraydi va katta zarar keltiradi. Bunday zararkunandalardan biri parazit nematodalardir bugungi kunda deyarli barcha o'simlik turlarini 2000 turdan ko'proq parazit nematodalar zararlaydi va har yili dunyo o'simliklarining hosildorligini 10% gacha nobud bo'lishiga olib keladi. Fitogelmentlar ta'sirida qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini o'rtacha 6-25% gacha Ayrim hollarda 70-95%gacha kamayishi aniqlangan . [4 178b]. . Bugungi kunda poliz ekinlarini bir necha turdag'i nematodalar zararlab hosil miqdorini kamaytirib uning sifatini buzmoqda.Bunday zararkunandalarga Tylenchida va Aphelenchida turkum vakillariga mansub turlar kiradi.

Surxondaryo viloyatining 5 ta tuman jumladan Angor, Denov, Oltinsoy, Jarqo'rg'on Termiz tumanlari poliz ekinlari o'rganilganda olib borilgan tadqiqotlar natijasida topilgan va aniqlangan fitonematomalar taksonomik klassifikatsiyasi bo'yicha 2ta turkum, 3ta kenja turkum 4 ta katta oila 8 ta oila 13 avlod, 30 turga mansubdir.

Termiz tumani, Jarqo'rg'on tumani Angor tuman, Denov tuman, Oltinsoy tuman qovun va tarvuz o'simliklarining ildizi va ildizi atrofi tuprog'i 2021-2022-yillar davomida tadqiqot ishlari olib borildi. o'rganilganda Meloidogyne (Goeldi,1887) avlodiga mansub Aphelenchoides(Fischer, 1894) avlodiga mansub Tylenchorhynchus (Coob,1913), avlodiga mansub Paraphelenchus (Micoletzky, 1925) avlodiga mansub Rotylenchus (Filipjev,1936), Pratylenchus (Filipjev 1936) avlodiga mansub turlar uchrashligi aniqlandi.

O'simliklardagi va tupropqdagi fitonematosalar soni, ularning populyatsiyasi zichligi doimiy bo'lmasdan vaqt o'tishi bilan turi va yashash muhitiga bog'liq holda ekologik faktorlar ta'sirida o'zgarib turadi.[5.63b]

Tuproq fitonematosalarning turlar tarkibi sezilarli darajada ildizda yashovchi turlarga nisbatan boy bo'ladi.O'simlikning yer usti organlarida o'rashib olgan fitonematosalar faunasiga qaraganda ildizda uchrovchi fitonematosalar turlar tarkibi va soni jihatidan anchagina ko'pdir Tuproq va o'simlik ildizi atrofidagi fitonematosada turlarining xilma-xilligiga nisbatan tuproq organizmlarining turli tumanligini shunday tushuntirish mumkinki, ular o'zlarining hayotiy faoliyati mahsulotlari bilan tuproqdagi fitonematosalar faunasi uchun ozuqa bo'lib xizmat qiladi.

Parazit fitonematosalarning faolligi tuproqning tarkibi va turiga bog'liq Fitogelmentlar uchun eng ma'quli yengil qumloq tuproq bo'lib unda yirik teshiklarning bo'lishi havo aylanishini ta'minlaydi. Biroq ba'zi bir turlar, masalan, ildiz ektoparazitlari–paratelinlar og'ir gelli tuproqni ma'qul ko'radi. Fitonematosalar uchun tuproqda organik moddalar, kislrodli va boshqa fizik-kimyoiy muhit sharoitining bo'lishi katta ahamiyatga ega.

Professor A.A.Paramonov 1962 yilda fitonematosalarning o'simliklar bilan oziqlanishi, yashash joylari va yashash tarzining xilma-xilligini hisobga olib, ularning ekologik (yashash joyi) klassifikatsiyasi (tasnifi) ni yaratdi. Shunga muvofiq har bir fitonematosada turi, oziqlanishi o'simliklarga munosabati va hayot kechirishiga ko'ra to'rtta ekologik guruhga bo'linadi: Pararizobiontlar–erkin yashovchi nematosalar hayoti suv muhiti bilan chambarchas bog'langan. Shu sababli ularni ularni juda nam tuproqlarda tez-tez uchratish mumkin. Ular mikroskopik suz o'tlar, bakteriyalar va detritlar bilan ovqatlanadi. Nematosalarning yirtqich turlari tishlar onxolar, nayza va stiletbilan qurollangan bo'lib, tuproqdagi mikroskopik suv o'tlar bakteriyalar detritlar bilan oziqlanadi.Tuproqdagi mikroskopik umrtqasiz hayvonlarning lichinkalari va ularning tuxumlari bilan oziqlanadi; eusaprobiontlar–saprobiotik o'choqlarda, o'simlik organlarida va o'simlikning chirigan qoldiqlarida yashab saprobiotik buzilishlarga sabab bo'ladi. Ular bakteriya va detritlar bilan ovqatlanadi; devisaprobiontlar – saprobiotik muhitdan o'zining hayotiylik manbai sifatida foydalanib ba'zi hollarda sog'lom o'simlik to'qimalarida ham yashashi mumkin. Ular bakteriyalar, zamburug'lar va o'simlik to'qimasi bo'laklari bilan ovqatlani, sanitarlik vazifasini


bajaradi. O’simliklarning bakteriyali, zamburug‘li kasalliklar bilan kasallanishi natijasida ularning soni ortadi, shu bilan birga bakterial va zamburug‘li kasalliklar bilan kuchli zararlangan to‘qimalardan sog‘lom to‘qimalarga olib o‘tadi; Fitogelmentlar–ushbu nematodalarning og‘iz bo‘shlig‘ida erkin yashovchi va saprobiont nematodalardan farqli o‘laroq, o‘tkir yarimta ignaga o‘xshash stilet shakllangan. Shu organ yordamida parazit nematodalar o’simlik to‘qimasi va hujayralarini teshib ichidagi suyuqlik bilan oziqlanadi. A.A. Paramonov fitogelmentlarni o’simliklarda kasallik hosil qilishi xususiyatiga ko‘ra 2 ta kichik guruhlarga ajratishni taklif qildi, ya’ni kasallik keltirib chiqaruvchi fitogelmentlar va kasallik keltirib chiqarmaydigan fitogelmentlarga [1.338-369 c].

3.3.1-jadval

Poliz ekinlarida aniqlangan parazit fitonematoda turlarining ekologik guruhlar bo'yicha taqsimlanishi

Nº	Ekologik guruhlar	Turlar soni	%	Individlar soni	%
1.	Kasallik keltirib chiqarmaydigan fitogelmintlar	17	56,7	1009	56
2.	Kasallik keltirib chiqaradigan fitogelmintlar	13	43,3	805	44
3.	Jami:	30	100	1814	100

Poliz ekinlarida aniqlangan parazit fitonematoda turlarining ekologik guruhlar bo'yicha taqsimlanishi



Turlarning uchrash darajasi Meloidogyne avlodiga mansub turlar 21,5.%ni, Aphelenchoïdes avlodiga mansub turlar 11,7 % ni, Paraphelenchus avlodiga mansub turlar 12,8 %ni, Tylenchorhynchus 1,2 % ni, Pratylenchus avlodiga mansub turlar 5,66 %, Rotylenchus 0,2 % uchrashligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, bu muammolarni hal qilishda qishloq xo’jalik ekinlariga talofat yetkazayotgan zararli organizmlarni tur tarkibi, bioekologiyasi va zarar yetkazish darajalarini hamda tabiiy boshqarish qonuniyatlarini ochish va shular asosida ularga qarshi kurashda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Парамонов А.А. Основы фитогельминтологии // -М.: Наука, - 1970. - Т. III. - 255 с.
2. A.T.To’laganov, A.Z. Usmonova Фитонематоди Узбекистан // Toshkent “Фан ”1975.Т.I .371c
3. A.T.To’laganov, A.Z. Usmonova Фитонематоди Узбекистан // Toshkent “Фан”1975.Т.I .442c
4. Sh.X.Xurramov, K.E.Eshnazarov, A.Sh.Xurramov “Fitogelmentologiya ”Surxon-Nashr” 2020-yil
5. Хуррамов Ш.Х. О природной очаговости паразитических нематод растений южного Узбекистана //.Матер.IX конф,Укр.Об-ва паразитол.Киев, “Наука Думка “ 1980 ч.5.с.103-104
6. Zuev Vladimir Ilich, Qodirxo‘jaev Orif, Adilov Maxsud Mirvasitovich, Akramov Umidilla Ikramdjanovich “Sabzavotchilik va Polizchilik” Toshkent 2010-yil.